



HUNARMADCHILIK MARKAZLARINI ARXITEKTURAVIY

SHAKLLANTIRISH

NASIROVA FARIDA ALIJON QIZI

Toshkent Kimyo xalqaro universiteti

“Arxitektura va shaharsozlik” kafedrası magistranti (O‘zbekiston)

Tel.:(93)373-94-65

e-mail:feride_aliyevna@mail.ru

Annotatsiya: Ushbu maqolada Marg‘ilon shahridagi o‘zining xon-atlasi bilan butun dunyoga mashhur bo‘lgan “Yodgorlik” shoyi to‘qish fabrikasining arxitekturaviy yechimi, joylashgan o‘rni, atlas va adras bilan mashhurligi, turistlar uchun marshrut xaritasini ishlab chiqilganligi va boshqa xususiyatlari haqida so‘z boradi. Bu yodgorlik Marg‘ilon shahridagi daslabki hunarmadlar markazlaridandir. Markazning asosiy qismlaridan biri - “Ipak qozoni” bo‘lib O‘rta Osiyoda yagona hisoblanadi.

Kalit so‘zlar: “Yodgorlik” fabrikasi, hunarmadchilik ustaxonalari, shovqundan himoya, tabiiy va suniy yoritish, ipak.


Kirish. Farg‘ona vodiysida birinchi ming yillikning boshida Xitoydan olib kelingan ipakdan eng ajoyib mahsulotlar ishlab chiqarish o‘zlashtirilgan. Ammo VII-VIII asrlarga kelib bu yerda ipakchilik o‘zlashtirilgan va Marg‘ilon shahri butun O‘rta Osiyo mintaqasining “ipak” poytaxtiga aylangan. Eng yaxshi ipak mahsulotlari Buyuk ipak yo‘li bo‘ylab ko‘plab mamlakatlarga jumladan, Yevropa mamlakatlariga ham olib kelingan. Marg‘ilon shahri O‘zbekistonning barcha shaharlari orasida o‘zining me‘moriy yodgorliklari, ajoyib ipaklari bilan mashhur. Aynan shu yerda o‘zining xon-atlasi bilan butun dunyoga mashhur bo‘lgan “Yodgorlik” shoyi to‘qish fabrikasi joylashgan. Buyuk ipak yo‘li gullab-yashnagan davrda bo‘lgani kabi bugun ham fabrikada tayyorlanayotgan barcha matolar, jumladan, ipak dunyoning ko‘plab mamlakatlariga eksport qilinmoqda. Bu yerga tashrif buyurgan sayyohlar nafaqat haqiqiy ipak matolarini yaratish jarayoni bilan tanishishi, balki fabrika ustalari tomonidan tayyorlangan Marg‘ilon ipak parchasini ham xarid qilishlari mumkin bo‘ladi.

Asosiy qism. Hunarmandchilik markazlarini loyihalaganda ustaxonalarda hunarmandchilik turlaridan kelib chiqqan holda shovqin yuqori bo‘lishi mumkin. Bu yonma




yon joylashgan har xil yo‘nalishdagi ustaxonalarga ta‘sir qilmaslik uchun shovqindan himoya devorlaridan foydalaniladi. Ustaxonalar orasiga o‘simlik va daraxtlar ekish ham yaxshi samara beradi. Katta yo‘lga yaqin yoki aholi punktlarida joylashgan ustaxonalarda bu o‘z isbotini topgan. [2]

Ishlab chiqarish korxonalarida shovqindan himoya qilish ikki yo‘nalishda bajariladi. Birinchi yo‘nalish shovqinni manbaning o‘zida pasaytirish bo‘lsa. Ikkinchisi shovqinni arxitekturaviy-rejaviy va qurilish-akustik usullar bilan kamaytirish hisoblanadi.



1- rasm. Ustaxonalarni shovqindan himoyalash

Hunarmandchilik markazlarini loyihalashda faoliyatga muvofiq joyni aniqlash va aholining demografik tarkibi, yaratilayotgan mahsulotlarga bo‘lgan ehtiyoj, mahsulot ishlab chiqarish uchun resurslar mavjudligidan kelib chiqqan holda bosh rejani qulay joyga loyihalashga e‘tibor qaratish lozim. [4]



2-rasm. Hunarmandchilik markazida tabiiy shamollatish

Ustaxonalarni yoritishda ikki xil usul ya‘ni, tabiiy va sun‘iy yoritishdan foydalaniladi. Tabiiy yoritish tashqi to‘siq konstruksiyalarga o‘rnatilgan o‘rinlar orqali amalga oshiriladi. Tabiiy tizimning yon tomondan, tepadan va aralash yoritish usullari mavjud. Sun‘iy yoritish elektr yoritgichlar yordamida amalga oshiriladi. [1. 26-bet]



Marg'ilon shahar arxitektura yodgorliklari bo'yicha turistik xarita ishlab chiqilgan. Bu turistik xarita 1 – rasmda keltirilgan bo'lib, xaritaga asosan Marg'ilon shahridagi arxitektura yodgorliklari bo'ylab sayohat marshrutlari, sayohatchilarga qulay bo'lishi uchun ikki marshrutga ajratilgan. Sayohat marshrutida arxitektura yodgorliklari, ziyorat joylari, diqqatga sazovor joylar, hunarmandchilik uylari, turizm markazi, mehmonxonalar, kafe-restoranlar, asosiy ko'chalar, temir yo'l stansiyalari va asosiy turistik marshrutlar loyihasi chizilgan.



3-rasm. Marg'ilon shahar arxitektura yodgorliklari marshrut xaritasi.

Xulosa. Ushbu maqolani yozish davrida, mamlakatimizning tabiiy iqlim mintaqalaridan kelib chiqqan holda quyosh radiatsiyasi va shamol yo'nalishini to'g'ri tanlash, asosiy vaqtini ustaxonada o'tkazadigan ustalarning ish faoliyatiga ijobiy ta'sir ko'rsatishini hamda, ustaxonalarni tabiiy yoritishda yon derazalardan ko'ra shiftdan yoritilishi ish samaradorligini oshirilishiga sabab bo'lishini va butasimon o'simliklarni ekish orqali ustaxonalardan chiqadigan yoki ko'cha shovqinidan himoyaga erishilinishi mumkin. Hunarmandchilik markazlarini hududning joylashuv rejasida bozorlarga yaqin joylarda loyihalaniishi ichki va tashqi turizmni jalb etishda eng yaxshi samara beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:



1. Vaxitov M.M. “ Me’morchilik”.-Toshkent: Tafakkur. 2010. Qism III.: Sanoat binolari. - 240 b.
2. “Handicraft Exports: Some Suggestions for Successful Marketing” International Trade Forum. No. 2: 16–31.
3. “Craft Trade and Protection”. 2001. International Trade Forum. No. 1. Danish Import Promotion Office, Danish Chamber of Commerce. 2004. Handicrafts: A Survey of the Market for Handicrafts in Denmark.
4. Van Ha, N.Kant, S., & MacLaren, V. (2004). The contribution of social capital to household welfare in a paper-recycling craft village in Vietnam. The journal of environment & development, 13 (4), 371-399.